AMALIY VA FUNDAMENTAL TADQIQOTLAR JURNALI
Jild: 05 Nashr: 04(2026)
www.mudarrisziyo.uz

XOJA AHROR VALIYNING TASAVVUF TA'LIMOTIGA DOIR NAZARIY QARASHLARI

Majidov Akmal Akbar o'g'li[1], Nishanova Dildora Komiljanovna[2]
[1]Oriental universiteti Tarix yo'nalishi,
[2]Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori
(PhD), dotsent v.b

Abstrak: Ushbu maqolada XV asrning ikkinchi yarmida Xoja Ahror Valiyning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy hamda ma'naviy hayotdagi o'rni tahlil qilinadi. Uning Naqshbandiya tariqati rivojiga qo'shgan nazariy va amaliy hissasi, xususan "dast ba kor, dil ba Yor" tamoyilining mazmun-mohiyati yoritiladi. Tadqiqotda allomaning "Risola-i Havroiyya", "Risola-i Volidiya" hamda "Faqirot ul-orifin" asarlari asosida tasavvufiy qarashlari ochib beriladi. Ayniqsa, Abu Sa'id Abulxayr ruboiylariga yozilgan sharhlar orqali inson tabiati, ruh va jism munosabati, ilohiy jamolga intilish g'oyalari tahlil etiladi. Shuningdek, insonning asl mohiyatini anglash, ruhiy kamolot sari intilish va tasavvufdagi muhabbat konsepsiyasi ilmiy asosda yoritiladi.

Key words: Xoja Ahror Valiy, Naqshbandiya tariqati, tasavvuf, ruh va jism, ilohiy jamol, Abu Sa'id Abulxayr, Risola-i Havroiyya, tasavvufiy tafsir, ma'naviy kamolot, muhabbat konsepsiyasi.

Kirish. XV asrning ikkinchi yarmida Xoja Ahrorning mamlakat siyosiy, iqtisodiy va madaniy ma'naviy hayotidagi mavqei kuchaygan, mutasavvif naqshbandiya tariqatini nazariy jihatdan boyitibgina qolmay, balki undagi ''dast ba kor, dil ba Yor''- ''qo'l mehnatda, dil Allox yodi bilan band bo'lsin'', degan shiorini amaliyotga joriy etgan.[1] Mazkur yo'nalishda Xoja Ahror Valiy bir necha asarlar yozgani xam ma'lum. ''Risolai Havroiyya''(''Hurlar xakida risola'') Shayx Abu Sa'id Abulxayrga (XI asr) tegishli bir tasavvufiy ruboiy sharhiga bag'ishlangan: ''Risolai Volidiyya''(''Otaga atalgan risola''), tasavvufiy risola (Xoja Ahror uni o'z otasining iltimosiga ko'ra yozgan), ''Faqarot ul-orifiyn''(''Oriflar hayotidan lavhalar'') naqshbandiya tariqatining nazariy tahlilini o'z ichiga olgan. Xoja Ahror o'z risolasida Shayx Abusaidning ruboiysidagi badiiy obrazlar tasavvufiy ma'nolarini muhokama qilgan. Avvalo, bu ruboiyni bemor tepasida o'qishdan maqsad muhabbatli kishilarning sururiga sabab bo'lish ekanini ta'kidlagan.[2]

Adabiyotlar sharhi. Xoja Ahror Valiyning "Risolai Havroiyya" (Hurlar risolasi) va mutaqaddamin va mutaaxxirin mashoyixlar naqli bilan bog'liq 52 ta rashhalarining 39-chisi(8, 352) Abu Said Abul Xayr ijodini tahlili bilan bog'liq. Xoja Ahror Valiyning "Risolai Havroiyya" – asarining nusxalari O'z FA Sharqshunoslik instituti qo'lyozmalar fondida saqlanmoqda.(2, 23) "Risolai Havroiyya" (Hurlar risolasi) Abu Said Abul Xayr tomonidan yozilgan, bemor kishiga o'qilsa sharofatli hisoblangan va shuning uchun juda ko'p kishi tomonidan sharh etilgan ruboiyning tahliliga bag'ishlangan. Chunki ilgarigi sharhlar Xoja Ahrorni qoniqtirmagan va o'zi bu ruboiyni tahlil Ijtimoiy gumanitar fanlar etish maqsadida "Hurlar risolasi" nomi bilan mo'jazgina, lekin boy tasavvufiy mazmunni o'ziga olgan asarni yozgan.[3]

“Risolai Havroiyya”da Abu Said Abul Xayrning quyidagi mashhur ruboiysini Xoja Ahror sharhlab, o‘zining insonga oid qarashlarini bayon etadi:

Huro ba nazzorai nigoram saf zad,
Rizvon z-taajjub kafi xud bar kaf zad.
On xoli siyah bar on ruxon mutraf zad,
Abdol zi biym chang bar mus’haf zad.[4]

Bu ruboiyning asosiy so‘zlariga Xoja Ahror tomonidan sharh va izohlar berilgan. Shular asosida ruboiyni o‘zbek tilidagi tabdilini quyida keltiramiz. Xoja Ahror “Risolai Havroiyya” asarining boshida, sharhlardan oldin inson haqida fikr yuritadi. U insonni tana va ruhdan iborat ilohiy mavjudot sifatida ko‘rib tahlil etadi. Ruhlarni Haq o‘z Jamolini muhoshadasi uchun yaratgan, deydi Xoja Ahror. Ruh tanaga kirganda o‘z asli Haq Jamolidan hijoblar bilan to‘siladi.[5] Ammo asl holatda inson ruhida Haq Jamoli bilan muhabbat va unsiyat hosil bo‘ladi. Jaloliddin Rumiy aytganidek, nay aslidan uzilib yana unga yetish uchun nola qilganidek, inson ruhi doimo asliga tomon intiladi. Lekin ruhlar asl holatlariga qaytishga intilsalar ham, xohlasalar ham taqdir taqozosi bilan qayta olmaydilar. Odam (alayhissalom) qancha Jamolga intilsa ham farzandlari, badan bog‘lanishlari tufayli hijob-pardalar hosil bo‘lganini misol tariqasida Xoja Ahror yozadi.[6]

Tadqiqot metodologiyasi. Xoja Ahror insonlarni ikki toifaga bo‘ladi. Biri bog‘lanishi va taalluqlar pardasiga o‘ralib o‘z aslini unutib, kufru isyon yo‘liga o‘tadi. Ikkinchi qism payg‘ambar va valiylar yordami bilan aslini xotirlaydi va iymon nuri bilan munavvar bo‘ladi. Natijada Haq Jamolini hech unutmaganlaridek ularda kuchli ishtiyoq paydo bo‘ladi. “Muhabbat otashi ularning dillarida shunday o‘rnashdiki, bu otash o‘shal Jamol mushohada yodisiz taskin topmaydi. Agar bu otash ularni qattiq kuydirsayam, lekin bu otashsiz turolmaydilar.”[7]

Ikkinchi toifa- nurli, iymonli, komil insonlar uchun o‘lim asl bilan bog‘lanish, visol sururidir. Shuning uchun o‘lim haqida gapirganda ular shod bo‘ladilar. Xoja Ahror yozadi: “Ular shunday toifaki, biror zahmat-bemorlik yetganda ularga bir kishi shu holatlarida o‘lim haqida gapirsa, ular shod bo‘ladilar, zero, biladilarki, o‘shal Jamol mushohadasini toppish o‘limsiz hosil bo‘lmaydi.” (23, 12) Bu xabardan shod bo‘lgan bemorning badaniga ham yengillik, hosil bo‘ladi, deb yozadi Xoja Ahror “Haqiqiy Jamol mushohadasi lazzati bu olamdan o‘tgandan keyin bo‘ladi” – deb Xoja Ahror payg‘ambarimiz Muhammad (sallallohi alayhi vasallam)ni “kim Menga Safar oyining chiqqanidan xabar bersa, Men unga Jannat bashoratini qilaman” hadisi orqali bu fikrni isbot etadi.[8]

Xoja Ahror “o‘limni eslash ulug‘larning shodligi” ekanini, yuqorida tilga olgan Abu Said Abul Xayrning ruboiysi shu ma’noda bo‘lganligi uchun bemorga muhabbat sururini, Haqqa qaytish zavqu shavqini berishini aytib, har bir ruboiydagi asosiy tushunchani izohlaydi. Xoja Ahror aslini esda tutgan, Ilohiy Jamol ishqida kuyib, unga yetishishni orzu qilayotgan komil inson bemorlik holatiga nisbatan o‘z sharhini yozadi. Xoja Ahror ruboiyni boshidagi “Huro” so‘zi hurlar va farishtalarni anglatishini yozadiki, ular o‘layotgan ilohiy ishqda kuygan bemor boshiga kelib saf tortib, uni kuzatib turadilar. Birinchi qatordagi “nigor” Xoja Ahror fikricha mahbublik maqomidagi inson ruhi. Qur’oni Karimdagi Moida surasining 54-oyati - “U ularni yaxshi ko‘radi, ular ham uni yaxshi ko‘radilar”ni Xoja Ahror asos sifatida keltiradi. Abul Said Abul Xayr ruboiysining birinchi qatori Xoja Ahror sharhi bilan quyidagi ma’no oladi: Hurlar, farishtalar mahbublik maqomidagi ruh – nigoroni kuzatib, nazzora etib, saf tortdilar.[9]

Tahlil va natijalar. Xoja Ahror bu holat mahbublik maqomidagi insonda bo‘ladi deb ta’kid etadi. Ruboiyning ikkinchi qatoridagi “Rizvon”-dan murod esa dil bog‘i (jannat)ni qo‘riqlovchi aqldir,” deb Xoja Ahror dilni jannat bilan qiyoslaydi, “Ammo dil behishtga tabiat do‘zaxidan o‘tmaguncha yetmaydi” deb, Xoja Ahror ruh tanaga kirib, moddiy olam, shahodat olamida o‘z o‘rnini topib, bandalikni o‘rniga keltirganidagina qalb jannatga aylanishini yozib, moddiy olamdagi pokiza hayot kechirish ruh kamoloti uchun naqadar muhimligini ta’kid etadi.[10] “Taajjub” so‘zini Xoja Ahror qalbni o‘zidan uzoq narsalarni bilib qolishi va bu esa aqlni hayratga tushishiga sabab ekanligini aytadi. Bundan kelib chiqib Abu Said Abul Xayr ruboiysini ikkinchi qatorini shu mazmunda tabdil etish mumkin:

Rizvon – qalb, dil jannatini qo‘riqlovchi aql (qalbni) ogohligidan taajjubga tushib, o‘z kaftini

kaftiga urdi. Bu holat hayratdan lol bo‘lgan paytda insonga beixtiyor sodir bo‘ladi. Bu go‘zal holat aqlni lol etgan, hayratga solgan. Bu bilan Xoja Ahror qalbni ko‘rishni, anglash, dark etish darajasini cheksizligi va aqlni bilish darajasi chegaralanganligini ham ta’kid etmoqda.[11]

Xoja Ahror ruboiyni uchinchi qatoridagi “xoli siyox” – qora xolni o‘lim vaqtida zuhurga keladigan xorlik, mazallat va kamtarliklar, deb sharh etadi. Shu qatorda “mutraf” so‘zi bor. Uni mazmuni “yuzni yopuvchi parda, hijob” (776, 15) -dir. Sharh va izohlar bilan ruboiyni uchinchi qatorini shunday mazmunda yozish mumkin:

O‘shal qora xol – o‘lim holati, ruhlar uchun hijob, pardani olib tashladi. (Ularga vasl bilan qo‘shilish uchun imkon berdi.)[12]

Shuning uchun bo‘lsa kerak tasavvuf ahli “o‘limdan oldin o‘lmoq”ni istaydilar. Shuning uchun bo‘lsa kerak Bahouddin Naqshband: “Gar bimirem hech motam ne”, ya’ni “agar biz o‘lsak motam emas” – deb ta’kid etganlar.

Ruboiy to‘rtinchi qatoridagi “Abdol” va “Mus’haf”ni Xoja Ahror quyidagicha sharh etgan:

“Abdoldan maqsad nafsoniy quvvatdurki, inson mohiyatida har xil o‘zgarishlar yasaydigan narsadir.

Mus’hafdan murod esa Kull mazhari, jamlik nusxasi bo‘lgan inson haqiqatidir.

“Abdol” – Xudoga yaqin, xudoning xos kishilari bo‘lib, ular yetmish kishidan iborat. Xoja Ahror shu yetmish quvvatni insonni botinida mavjudligini aytadi Mus’haf – Qur’oni Karimni ham shu nom bilan ataydilar.[13] Bu yerda Mus’haf – Qur’on qanday Olloh kalomi bo‘lib, butun Olam mohiyatini aks ettirsa, inson ham – Mus’haf – Olloh-Kullning zohir bo‘ladigan joyi, jam’ maqomidagi nusxa bo‘lib, uni Xoja Ahror inson haqiqati deydi. U yerda Qur’oni Karimdagi “Fussilot” surasidagi 53 oyatni keltirib, uni izohida yozilgan va inson mohiyatini ochib beradigan quyidagi ruboiyni keltiradi:

Ey nusxai nomai ilohi, ki tui,
Va ey oynai jamoli shohi, ki tui.
Berun zi tu nest, har chi dar olam hast,
Dar xud bitalab, har on chi xohi, ki tui.
Mazmuni:
Ey ilohiy noma nusxasi, sensan,
Ey Shoh jamoli ko‘zgusi, sensan.
Olamda nima bor bo‘lsa, senda bordir,
O‘zingdan talab qil, har nima istasang, o‘zingsan.[14]

Abu Said Abul Xayr ruboiysini to‘rtinchi qatorida “chang solish”ni Xoja Ahror “o‘zlarining rutbasi pasayib, ruh martabasi oliy bo‘lganligidan ruhga yopishishdir”– deydi. Umuman ruboiyni to‘rtinchi qatorini quyidagicha tabdil etish mumkin:

(O‘lim holatida ruhiy olam sururini ko‘rib) abdol – barcha nafsoniy quvvatlar qo‘rqib, asl mohiyat, inson haqiqati bo‘lgan Mus’hafga yopishdilar. Xoja Ahrorning Abu Said Abul Xayr ruboiysini sharh, izoh, tahlilidan ma’lum bo‘ladiki, inson kamoloti, haqiqiy asl mohiyatni topish, ilohiy ishq ila mahbublik maqomiga yuksalish uchun o‘limni eslash, “robitai mavt”66ning ahamiyati kattadir, foniy va boqiy, o‘zgaruvchan va abadiy narsalarni bilish inson uchun muhimdir. Xoja Ahrorning bu sharhlari Alisher Navoiyning quyidagi mashhur misralari bilan hamohangdir:

O‘z vujudingni tafakkur aylagil,
Har na istarsen, o‘zingdan istag‘il.

Xoja Ahror rashhalari tufayli biz yana bir bor tasavvufga berilgan ta’riflarning eng yaxshisini angladik. Darhaqiqat, vaqt qadrini bilish har nafas, har onni to‘g‘ri o‘z o‘rniga sarflash jamiyat va inson kamoloti uchun zarur.[15]

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytish mumkinki, Xoja Ahror Valiyning Abu Said Abul Xayr ruboiysining sharhiga doir asari va tasavvufga oid hikmatli so‘zini ifodalovchi rashhasi uning inson, inson mohiyati, haqiqiy inson, ruh, tana, o‘lim, ilohiy ishqga oid tasavvufiy tushunchalarini anglashga imkon beradi. Bularni anglash Xoja Ahror shaxsiyatini chuqurroq bilish imkonini beradi.

Naqshbandiylik ta’limotining namoyandalari insonlar o‘rtasida murosayu madorani ta’minlashda suhbat, o‘zlikni anglash, Olloh bergan ne’matlarga shukronalik muhim omil ekanligini ta’kidlaganlar.

Xoja Ahror Valiy aytadilarkim, “Jam’e bilan o‘lturunglarkim, sizlarga g‘olib bo‘lmasunlar, to sizlarni yemasunlar va g‘olib bo‘lmasunlar, ya’ni nafsu havo yuzidin qaviy bo‘lmasunlar va sizlarni yemasunlar, ya’ni sizlarni vaqtingizni zoyi’ va nobud etmasunlar.” Demak, yomon hamsuhbat, nafsga berilgan bo‘lsa, u bilan o‘tgan vaqt zoe ketadi, nobud bo‘ladi va u sizni yeydi, ya’ni sizdagi ijobiy quvvat, fazilatlaringizni yo‘qotadi.

Shuningdek, Xoja Ahror Valiy yaxshilar bilan suhbatni behisht, jannat bilan tenglashtirib, aziz-avliyolar suhbatini g‘animat sanash lozim deganlar. Xoja Ahror Valiy aytgan edilarkim, “Sohibi “Bahr ul-haqoyiq” Shayx Najmuddin Doya alayhir rahma oytib tururlar, “Darig‘okim, hech kishi avliyolarning suhbatlari qadrin bilmadi va bilmaslar”. Bu bilan bizlarga yaxshilarni qadrlash va ular suhbatini g‘animat bilish lozimligini ta’kid etmoqdalar. Shu ma’noda yana bu baytni aytganlar:

Bo oshiqon nishinu, hama oshiqi guzin,
Bo har ki nest oshiqi bo o‘ mashav qarin.
Mazmuni:
Oshiqlar bilan o‘tirginu, hamma oshiqlikni olgin,
Kimda-ki oshiqlik bo‘lmas, u bilan yaqinlashma.

Bu misralarda oshiq-ilohiy ishqdan sarmast, faqat ilohiylik sifatlarini sevuvchi kishidir. Shunday hamsuhbat bilan o‘tirgan insonda ham ishq o‘ti alangalanib, to‘la oshiq bo‘ladi. Ammo ishqi yo‘q, dardi yo‘q, kesakka o‘xshash kishilar bilan umuman yaqinlashma, deydi Xoja Ahror Valiy.

Shu mazmundagi Jaloliddin Rumiyning “Masnaviyi Ma’naviy” asaridan ham Xoja Ahror Valiy shunday misralarni keltirganlar:

Peshin ustode, ki o‘ naxvi buvad,
Joni shogirdash az o‘ naxvi shaved.
Mazmuni:
Nahviy (tilshunos) bo‘lgan ustoz oldida,
Shogirdning joni (tani, jismi va ruhi) ham tilshunos bo‘ladi.

Demak, hamnishinining ruhiyati, sifati suhbatdoshiga ta’sir etadi. Ayniqsa, bu uzoq muddat bo‘lsa, ya’ni ustoz-shogird sifatida ko‘proq muloqotda bo‘lsa. Shuning uchun tasavvufda ustoz tanlashga ham juda e’tibor berganlar. Xoja Ahror Valiy shaxslararo murosa fazilatlarini shakllantirishda suhbatning roli katta ekanligini ta’kidlaganlar. U kishi bu masalada Qur’on, hadislarga, buyuk ajdodlar – Boyazid Bistomiy, Abdulxoliq G‘ijduvoniy, Ahmad Yassaviy, Hazrat Azizon – Xoja Ali Romitaniy, Jaloliddin Rumiy, Bahouddin Naqshbandlarning g‘oyalariga tayangan va ularning ta’limotini rivojlantirgan.

Muhokama. Ziddiyatli tomonlarni murosaga keltirish uchun ularning: 1) fikriy; 2) ruhiy; 3) irodaviy sohalardagi jarayonlariga maxsus e’tibor berish kerak. Tasavvufiy nuqtai nazardan mazkur jarayonlarni falsafiy jihatdan tahlil etamiz:

1. Ziddiyatli tomonlarning murosaga keltirishni fikriy jarayoni tafakkur qilishga bog‘liq: “tafakkur” so‘zining o‘zagi “fikr” bo‘lib, bu so‘z mantiqiy fikr yuritish ma’nosini anglatadi. Tasavvur qilish mumkin bo‘lgan narsalar haqidagina tafakkur qilish mumkin. Shuning uchun mutasavviflar Allohning yaratganlari haqida tafakkur qilishni afzal deb biladilar. Tafakkur fikriy jihatdan ziddiyatni bartaraf etishning birdan-bir jihati bo‘lib, tasavvufiy qarashlarda bu holat berilgan ne’matlar uchun shukr qilish kerakligi g‘oyasi bilan hamohangdir.

Mutasavviflar Ilohiy qudrat timsoli bo‘lgan yeru osmon, jamiki mavjudotlar, xususan, mukarram zot bo‘lgan inson va unga ato etilgan ne’matlar haqidagi tafakkur va tasavvurimiz natijasi sifatida Alloh taolo bergan barcha ne’matlarning qadriga yetib, shukr qilishimiz kerakligini uqtirganlar. Tafakkur orqali biror narsa va hodisalarga nisbatan munosabat bildiriladi, uni baholashni ifodalaydigan hukm va xulosalar bo‘lib, ular ijobiy tomonga yo‘naltirilgan bo‘lishi muhimdir. Fikriy jarayondagi ziddiyatlarni hal etishda ne’matlarni tafakkur etish va shukronalik, murosaga kelishuvning asosiy vositasi ekan.

2. Tasavvufiy ta’limotlarda ziddiyatli tomonlarni ruhiy jihatdan murosaga keltirish uchun qalbning

g‘aflat va yovuzliklardan poklanishi, nafsning tarbiya qilinishi va ruhning ilohiy huzurga yuksaltiruvchi holga ega bo‘lishi ziddiyatlarni bartaraf etishga xizmat qiladi. Bu mazmunda Xoja Ahror musulmonlik haqiqati hammaga nasib etishini istab, o‘z qarashlarini mustahkamlab, quyidagi misralarni keltirgan:

Lazzati dardi musulmoniam deh,
Nestiyi nafsi zulmoniam deh.
Kufri kofirro-u dini dindorro,
Zarrai dardat dili Attorro .
Mazmuni:
Musulmonligimiz dardi lazzatini, zulmona (zulm qiluvchi) nafs
yo‘qligini, kufri (kufrni inkor qilishni), dindor dinini, Attor dilidagi
dardingdan bir zarrani ber.

Xoja Ahror Valiyning tasavvufiy qarashlarida Haqqa botinan bog‘lanish hech qachon jamiyatdan alohida bo‘lmasligi, insonlar g‘amida yashashi, birovga yuk bo‘lmasdan, birovning yukini ko‘tarishi, zohiran Xalq bilan birga bo‘lishi kerakligini ta’kidlagan. Mutasavviflar jamiyatdagi ziddiyatlarning oldini olish uchun hatto, o‘zlarini mas’ul deb hisoblaganlar.

3. Irodaviy jarayonlarda mavjud bo‘lgan ziddiyatlarni murosaga keltirishda insonning mardlik va himmat kabi fazilatlarning ahamiyati katta. Chunki aynan shu fazilatlar inson irodasini mustahkamlaydi.

Tasavvufda jinsidan qat’i nazar, Ilohiy sifatlarni egallagan inson mard yoki eranlar deyilgan. Ular dunyodan kechib, Iloh yo‘liga o‘zini bag‘ishlagan ulug‘ mardlardir. Chunki, bunday himmati baland ulug‘ zotlardan o‘z manfaatlaridan kechib, nafsini yengish va jamiyat, tabiat qonunlari va qonuniyatlari bilan murosayu madora yo‘lini tanlash uchun ham kuchli iroda talab etiladi. Buyuk shayxlar aytgan so‘zlar bilan bog‘liq Xoja Ahror Valiy rashhalarining 18-chisida Bahouddin Naqshband aytgan muborak ushbu so‘zlar keltiriladiki, u kishi Hajga Makkai Muborakda himmati juda baland va himmati juda past ikki kishini ko‘rganlar. Himmati past deb, Bahouddin “bir kishini tavofda ko‘rdimki, qo‘lini xonai Ka’baning halqasig‘a urubdur, shundog‘ sharif joyda va shundog‘ aziz vaqtda Haq subhonahu va taolodin g‘ayri Haq subhonahu taoloni talab qilur erdi”, debdilar. Himmati baland kishi haqida “Minoning bozorida bir yigitni ko‘rdimki, ellik ming tillo kamobish olmoq va sotmoq savdo etdikim, ul fursatda bir lahza ko‘ngli Haq subhonahu va taolodin g‘ofil bo‘lmadi, ul yigitning g‘ayratidin maning ichimdan qon ketdi”. Bu yerda asosiy maqsad himmat masalasidir.

Himmat – arabcha so‘z bo‘lib, ikki ma’noda ishlatiladi. Birinchisi – kuchli iroda, qasd, azm, jiddu jahd, g‘ayrat. Ikkinchisi saxovat, javonmardlikdir. Bahouddin Naqshband himmatni iroda, jiddu-jahd ma’nosida ishlatgan. Birinchi odamni himmati past deyilishiga sabab, u farzni ado etish uchunMakkaga borgan bo‘lsa-da, nafsidan g‘olib bo‘lmagan, nafsi istagining talabida yurgan. Irodali inson nafsidan g‘olib bo‘lishi lozim. Ikkinchi yigit ellik ming tillo bilan savdo qilayotgan bo‘lsa ham, qalbi Haq zikri bilan mashg‘uldir. Uni savdo-sotiq ham yo‘ldan urolmagan. Xoja Ahror Valiy Bahouddin Naqshbandning himmat haqidagi g‘oyalaridan shunday xulosaga kelish mumkinki, irodaviy jarayondagi ziddiyatlarni murosaga keltirish uchun kuchli talab, iroda, jiddu jahd bilan nafsdan g‘olib bo‘lish kerak ekan. Manbalar Bahouddin Naqshband ruhiy kamolotida himmatning o‘rni katta bo‘lganligini ko‘rsatadi.

Demak, tasavvuf ta’limotining murakkabligi yana shundaki, tariqatlar o‘zaro aloqadorlikka ham ega, ammo ziddiyatli tomonlari hammavjuddir. Aloqadorligi shundaki, ularni birinchidan, din va musulmonlik qonun-qoidalari birlashtirib turadi, ziddiyatli tomonlari shundaki, shakllangan har bir tariqatda asosiy bosh g‘oyasi bo‘lgan va bu g‘oyaga sodiqlik ularni bir-biriga zid bo‘lgan qarashlarni ilgari surishga olib borgan. Shakllangan har bir tariqat alohida maqomga ega bo‘lsada, ular o‘rtasida aloqadorlik ham, ziddiyatli tomonlar ham mavjudligi kuzatiladi. “O‘z e’tiqodida sunniy salaf, hanafiy mazhab, moturidiy marom, avliyo maqom bo‘lgan Maxdumi A’zam Dahbediyning qarashlari shundan iborat ediki, so‘fiy aksariyat hollarda xonaqohda yashashi, faqat xalq, islom va tariqat manfaatini targ‘ib qilish uchungina uzoq vaqt xonaqohdan chetga chiqishi mumkin; ul zot tarki dunyochilik va go‘shanishinlikni inkor etib, ruhoniyatli ustozi Hazrati Bahovuddin Naqshbandning “Dil ba Yoru, dast ba kor” tezisiga amal qilishga chaqirardi; rasmiy e’tirof etilgan “zikri xufiya”ni qattiq himoyalash bilan birga, Yassaviya

tariqatining “zikri jahriya” va Kubraviya tariqatining “zikri samo”larini inkor etmas, shu bilan birga musiqiy sa’moni shu tariqatdagilar uchun joizdir, deb hisoblar edi. Bu bilan Maxdumi A’zam “inkor namekunam, in kor namekunam” (boshqa tariqat ishlarini inkor etmayman va bu ishlarni ham qilmayman) tezisiga qat’iy amal qilardi”.

Hozirgi davrda ziddiyatlarning paydo bo‘lishi, rivojlanishi, yakunlanishi hamda ularning konstruktiv yechimini o‘rganadigan fan yo‘nalishi konfliktologiya fanidir. Biroq falsafa fani ziddiyatlarning falsafiy jihatini, ularning falsafiy qonun va kategoriyalarning mazmun-mohiyatiga hamohang ravishda ezgulik tomonga yo‘naltirishning o‘ziga xos jihatlarini o‘rganadi. Umuman, murakkab vaziyatdagi insonga hayotda orttirgan tajribasidan tashqari din hamda san’at, madaniyat, ijtimoiy-siyosiy fanlarga oid bilim va ko‘nikmalar ham kerak bo‘ladi.

References:

[1] A. A. Semyonov, *Xoja Ahror Valiy hayoti va faoliyati*. Toshkent: Fan, 1975.
[2] B. Ahmedov, *Markaziy Osiyo tarixi*. Toshkent: O‘qituvchi, 1996.
[3] N. Komilov, *Tasavvuf*. Toshkent: Ma’naviyat, 2009.
[4] I. Haqqulov, *Tasavvuf va adabiyot*. Toshkent: Fan, 2001.
[5] S. Sayfullayev, *Naqshbandiya tariqati va uning tarixiy ildizlari*. Toshkent: Universitet, 2005.
[6] M. Jo‘rayev, *O‘zbek tasavvuf adabiyoti tarixi*. Toshkent: Fan, 2010.
[7] R. Vohidov, *Tasavvuf falsafasi*. Toshkent: Akademnashr, 2012.
[8] H. Boltaboyev, *O‘zbek mumtoz adabiyoti*. Toshkent: O‘qituvchi, 2006.
[9] Sh. Sirojiddinov, *Alisher Navoiy va tasavvuf*. Toshkent: Fan, 2013.
[10] N. Nasimov, *Tasavvuf ta’limoti asoslari*. Toshkent: Ma’naviyat, 2011.
[11] A. Qodirov, *O‘zbek adabiyoti tarixi*. Toshkent: Fan, 2008.
[12] B. To‘xliyev, *Tasavvuf va badiiy tafakkur*. Toshkent: Akademnashr, 2015.
[13] D. Yusupova, *Markaziy Osiyoda tasavvuf rivoji*. Toshkent: Universitet, 2014.
[14] F. Sultonov, *Naqshbandiya tariqati*. Toshkent: Fan, 2007.
[15] Z. Ismoilova, *Tasavvuf va ma’naviyat*. Toshkent: Ma’naviyat, 2016.